

## **YOMG'IR CHUVALCHANGINING BIOLOGIK AHAMIYATI VA O'SIMLIKLARGA TA'SIR MEXANIZMI**

*Berdiyorova Diyora*

*Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabi 7- "V" sinf o'quvchisi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada halqali chuvalchanglar haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Ularning turlari, hayot tarzi bayon etilgan. Yomg'ir chuvalchangining o'simliklarning rivojlanishida ahamiyati haqida ko'rsatib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar : yomg'ir chuvalchangi, biogumus, pilla, regeneratsiya.*

Halqali chuvalchanglar 9000 dan ortiq yuksak tuzilgan chuvalchanglardan iborat. Halqali chuvalchanglar erkin yashovchi qadimgi yassi chuvalchanglardan kelib chiqqan. Kam tukli halqali chuvalchanglar esa ko'p tuklilardan kelib chiqqan. Halqali chuvalchanglar ko'p tuklilar, kam tuklilar va zuluklar sinflariga bo'lingan. Dengizda yashovchi ko'p tukli halqalilarga dengiz ko'p tuklisi, nereida, nereis kiradi. Kam tuklilarga yomg'ir chuvalchangi, qizil chuvalchang kiradi.

### **Yomg'ir chuvalchangining sistematik o'rni**

Tip : Halqali chuvalchanglar

Sinf : Kam tukli chuvalchanglar

Tur : Yomg'ir chuvalchangi

Yomg'ir chuvalchangi halqali chuvalchanglar tipi , kam tukli chuvalchanglar sinfiga mansub. Chirindiga boy nam tuproqda hayot kechiradi. Uni ariq bo'yida, beda, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan dalalar tuprog'ida uchratish mumkin. Kuchli yomg'irdan so'ng yer yuziga chiqishi sababli uni yomg'ir chuvalchangi deb ataydi, ayrim joylarda shevada "loyxo'rak" deb ham ataladi. Yomg'ir chuvalchangining 180 dan ortiq turi bor. Tanasining

uzunligi 8-10 sm, oldingi uchi konussimon o'tkirlashgan. Tanasi ko'p sonli bo'g'imlarga bo'lingan. Har bir tana bo'g'imining qorin tomonida 4 juftdan kalta va ingichka tuklar joylashgan. Tuklar harakatlanayotgan chuvalchang uchun tayanch vazifasini bajaradi. Oldingi tomonidagi bir necha halqalari yo'g'onlashib, maxsus belbog' hosil qiladi.

Charlz Darvin ilk bor yomg'ir chuvalchaglarni kuzatgan, 1881 yil yozgan ilmiy maqolasida yomg'ir chuvalchaglarni Yer yuzini zahmatkashlari, "dala pluglari" deb atagan. Yomg'ir chuvalchangi tabiatda moddalarni aylanishiga katta hissa qo'shadi. Yomg'ir chuvalchangi in qazib, tuproqni yumshatadi, tuproqni ichagidan o'tkazib, unumdor tuproqqa aylantiradi. Chuvalchangi faoliyati tufayli tuproq donador bo'lib, suv shimilishi va havo o'tishini yaxshilaydi. Oziq zanjirini bir qismi hisoblanadi. Yerni chirindiga boyitadi. Tuproqni ekologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bir gektar maydonda chuvalchanglar bir yil davomida 250- 600 tonna tuproqni qayta ishlab berishi aniqlangan.

Yomg'ir chuvalchangi biogumus (organik o'g'it) ishlab chiqarishda daromad manbai hisoblanadi. Chorvachilik, uy- ro'zg'or chiqindilarini qayta ishlashda, akvarium baliqlari, qushlar va kosmitologiyada qo'llaniladigan shilliqurtlar uchun qimmatli oziq hisoblanadi. Yomg'ir chuvalchangi faoliyati natijasida o'simliklar o'sishi uchun qulay sharoitlar hosil qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.O. Mavlonov "Zoologiya" Toshkent, 2010 (2-nashr)
- 2.O.Mavlonov, Sh. Xurramov, Z. Norboyev "Umurtqasizlar zoologiyasi" Toshkent 2007
- 3.Uk.inaturalist.org., Ziyouz.com, Biologiya.edu.uz